

**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ИМЕНИ АБУ АЛИ ИБН СИНО**




Научно-практической конференции с международным
участием на тему:

**“ Проблемы экологии и
экологического образования ”**

СБОРНИК ТЕЗИСОВ

11-12 ноября 2022 года

Министерство Здравоохранения Республики Узбекистан Бухарский
государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино



Научно-практической конференции с международным
участием на тему:

“ Проблемы экологии и экологического образования ”

СБОРНИК ТЕЗИСОВ

11-12 ноября 2022 года

ОГЛАВЛЕНИЕ

1.Искандаров Т.И., Романова Л.Х., Искандарова Г.Т.	
НОВЫЕ ОТЕЧЕСТВЕННЫЕ ДЕФОЛИАНТЫ ХЛОПЧАТНИКА, РЕКОМЕНДУЕМЫЕ К ПРИМЕНЕНИЮ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКИСТАНА.....	11
2.Романова Л.Х., Искандаров Т.И., Искандарова Г.Т.	
ТОКСИКОЛОГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА И РЕГЛАМЕНТИРОВАНИЕ ФУНГИЦИДА «ТЕТРА» В ОБЪЕКТАХ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТАХ.....	11
3. ¹ Башун Т.В., ² Бельшева Л.Л.	
АКТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ САНИТАРНО-ГИГИЕНИЧЕСКОГО ЛАБОРАТОРНОГО КОНТРОЛЯ.....	12
4. ¹ Сидукова Олеся Леонидовна, ² Машенко Ирина Владимировна	
ОЦЕНКА УРОВНЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТРЕССА У ВРАЧЕЙ-ГИГИЕНИСТОВ.....	13
5. ¹ Abduvaliyeva F.T., ² Azizova F.L.	
MANALLIY SUV MANBALARINI MARKAZLASHTIRILGAN SUV TA'MINOTIDAGI ANAMIYATI.....	14
6. Абдукадирова Л.К., Султонов Э.Ю., Насимов С.И.	
РЕНТГЕН НУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНГАНДА ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИ САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ НОСПЕЦИФИК ГИГИЕНИК ОМИЛЛАР ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИБ БАҲОЛАШ.....	15
7. Azimova M.Q., Mirzakarimova S.R., Soxibova G.YU.	
YO'RIQ IONLANTIRUVCHI NUR MAN'BALARI BILAN ISHLOVCHILAR NING NURLANISH XOLATI.....	16
8. Атамуратова Айпаршин Сапарбай қизи ..	
БОҒЧА ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ДАРАЖАСИНИНГ ГИГИЕНИК ТАВСИФИ.....	17
9. Азимова М.К., Азимов А.М., Меликузиёв А.А.	
ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА.....	18
10. Амангелди М.А.	
ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ УРОЖАЙНОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЬТУР С ПОМОЩЬЮ ЭЛЕКТРОМАГНИТНОГО ПОЛЯ.....	19
11. Ashurova Maftuna Ortiq qizi	
HOZIRGI GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR ATROF MUNIT VA AHOLI SALOMATLIGIDA EKOLOGIK TURIZMNING O'RNI.....	20
12. Атамухамедова Масъуда Рахимжановна, Саидова Азиза Якубовна	
СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЕНТИЛЯЦИИ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПОМЕЩЕНИЙ.....	22
13. Sattarova B. N., Aliyeva M.	
OZIQ-OVQAT QO'SHIMCHALARINI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR	23
14. Адизова Хамида Рахимовна, Ахмедова Зебинисо.	
СУВ-ҲАЁТ МАНБАИ ВА МУҲИМ ЭКОЛОГИК ОМИЛ	24
15. Асадуллаев Анвар Нарзуллаевич	
ЭКОЛОГИК ОСОЙИШТАЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ГЕОЭКОЛОГИК АСОСЛАРИ.....	26
16. Aslonova Nasiba Muxammadovna, Sobirova Dilorom Bobirjon qizi	
CHO'L ZONASIDAGI TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLARNING EKOLOGIYAGA TA'SIRI.....	27
17. Бободжонов Б.Р., Носирова А.Р.	
КЕКСА ЁШЛИЛАР ВА УЗОҚ ЯШОВЧИЛАРНИНГ ОБҚАТЛАНИШ ТИЗИМИНИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ.....	28
18. Zaripova Gulbahor Kamilovna, Salimova Dildora Bahodirovna	
Barcha o'quv yurtlarda voyaga yetmagan yoshlarni yetuk inson sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tizimi	29
19. Zaripova Gulbahor Kamilovna, Salimova Dildora Bahodirovna	
Voyaga yetmagan yoshlarda Vatanga bo'lgan muhabbatni "BIZ BUYUK YURT farzandlarimiz"shiori ostida shakllantirishning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi o'rni.....	31

ularga nisbatan befarqlik kayfiyatini va umumiy ilm egallash va kasbiga ham shunday hissalamni uyg'otishga olib kelishi mumkin.

Barcha o'quv yurtida va yoshlar guruhlarida tarbiyaviy ishlar ta'sirchan bo'lishi uchun ularni rejalashtirishdan oldin kimlarga yo'naltirilgan bo'lsa (tarbiya ob'ekti), ularni xohishi istagi, qiziqishini og'zaki suhbat yoki so'rovlar orqali aniqlash, shularni hisobga olib, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish ijobiy natija beradi.

Shu bilan birga biz dastlabki urinish sifatida barcha o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlar haqida yaxlit bir tasavvur hosil bo'lishi uchun guruhlarni shakllantirish, ularda shaxslararo munosabatlar, ularning tarkibining bilim darajasi, yosh jins, miqdori, bosqichlari haqida pedagogik-psixologik ma'lumotlarni bayon qildik. Bularni barcha o'quv yurtlari rahbarlari, professor-o'qituvchilari, eng muhimi guruh rahbarlari, murabbiylari bilishlari juda muhim. Chunki bularni bilmasdan yoshlar tarbiyaviy ishlari haqida fikr yuritish mantiqsiz hisoblanadi. Shuningdek, barcha o'quv yurtlarida yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilarni bu boradagi hatti-harakat faoliyatlarining o'zaro muvofiqlashtirish modeli haqida o'z tajribamiz, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-tarbiyaviy jihatdan yondashdik. Ochiq e'tirof etish kerakki, bu masala ilmiy va amaliy hali hal qilingan emas. Buning boisi uning ko'p komponentli tizim sifatida murakkabligidir. Ammo bu degani ko'p komponentli jarayonlarni yagona boshqarish holatiga keltirib bo'lmaydi degani emas. Bu jarayonni xotik holatdan boshqariladigan darajaga ko'tarish-ishtirokchilar eng avvalo o'quv yurti rahbarlarining tinimsiz mehnati, izlanishi, uzoq vaqt yoshlar tarbiyaviy jarayoni natijalarini tahlil qilish, yutuqlarini mustahkamlash, kamchiliklar sababini aniqlashi, bartaraf qilishi asosida, soat mexanizmiday o'zaro muvofiq ishlovchi tizim yaratishi mumkin.

Voyaga yetmagan yoshlarda Vatanga bo'lgan muhabbatni "BIZ BUYUK YURT farzandlarimiz" shiori ostida shakllantirishning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi o'rni

Buxoro davlat universiteti Axborot texnologiyalari fakulteti dotsenti, p.f.n. Zaripova
Gulbahor Kamilovna,
E-mail: dersuzala1972@gmail.com,

Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti "Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti"
"Gidrotexnika inshootlar va nasos standiyalari" kafedrası Gidrotexnika inshootlari (suv
xo'jaligida) yo'nalishi II-bosqich magistranti Salimova Dildora Bahodirovna
E-mail: dildora.salimova@gmail.com,

Voyaga yetmagan yoshlarda Vatanga bo'lgan muhabbatni "BIZ BUYUK YURT farzandlarimiz" shiori ostida shakllantirishning ma'naviy-axloqiy tomoniga diqqatimizni qaratar ekanmiz, buning naqadar etishib kelayotgan yoshlar kelajagiga bog'liqligini nazarda tutmog'imiz lozim. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Harakatlar strategiyasi"ning 5 yo'nalishining barcha bandlarida bunga katta e'tibor berganlar.

Har bir inson dunyoga kelar ekan u uch holatni oldindan hal etaolmaydi. Bular qaysi Vatanda tug'ilishi? Ota-onasini tanlay olmaslik va go'daklikda qo'yiladigan ism. Zero shulardan biz qaysi Vatanda tug'ilishni tanlay olmaslik tushunchasiga alohida to'xtalmoqchimiz. Sababi shuki, inson ulg'ayganda o'z nomini vaqti kelib almashtirishi mumkin. Taqdirida ota-onadek mehribon zotlar duch kelganda ham va hatto duch kelmaganda ham ularni ota-ona kabi hurmat qilib e'zozlashi mumkin. Ammo kindik qoni to'kilgan, ilk qadamini tashlagan, yoshligining eng beg'ubor damlarining shohidi bo'lgan Ona Vatanini aslo almashtirib bo'lmaydi. Shunday ekan, biz Vatanimiz yoshu qariyalari Allohning nazari tushgan diyorimizni O'zbekistonni dunyoning eng go'zal jamiki mamlakatlaridan ham ustun ko'ramiz va shu tuyg'uni yoshlarimizda shakllantirishimiz bizning Vatanimiz oldidagi burchimizdir. Barcha davlatlarning o'z tarixi va o'sha zamonning buyuk namoyandalari bo'ladi. Mana shu buyuk davlat arboblardan tortib olimu allomalargacha, ta'lim-tarbiya sohasida tengi yoq ustozu murabbiylardan tortib tabibu donishmandgacha, mohir hunarmandlardan tortib shoiru mussavirlargacha, zabardast pahlavonu mehnatkash dehqongacha, qo'li gul pazandayu do'zandalargacha barchalari el yurt rivojida hissa qo'shgan INSONLAR bo'lib, dunyo o'tmishi minorasida bir g'isht qo'yib o'tishganlar. Biz ham bu buyuk ajdodlarimizning davomchilari hisoblanamiz.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida: "Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda,

farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi", - deb ta'kidlaganlar. "Shuning uchun ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat– yo falokat masalasidir", - degan chuqur ma'noli so'zlarini eslaylik. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi", - deb bejiz aytmaganlar.

Ona Vatanimizning mustaqilligiga endigina 26 yil to'lgan yurtimizning tarixi minorasida juda ko'plab ajdodlarimizning xizmatlari singan hamda ularning bebaho mumtoz me'rosi mavjud bo'lib bu buyuk allomalarimiz nafaqat jona-jon O'zbekistonimiz ravnaqiga balki dunyo hamjamiyatida ham o'rinlari beqiyos desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, buyuk bobokalonimiz Amir Temur nafaqat O'rta Osiyoni balki Yevropada ruslami ham Yildirim Boyazidning zulmidan qutqargan qahramondir. Bu kabi dunyo sivilizatsiyasini rivojlantirgan va insoniyat sog'ligini tiklagan, uni mukammal shaxs sifatida shakllantirishga hissa qo'shgan tibbiyotning otasi Ibn Sino, algebra fani kashfiyotchisi buyuk matematik olim Muhammad Al-Xorazmiy, dunyo maketini globusini kashf qilgan Beruniy, kilometr asbobi yaratuvchisi Farobiy, yulduzlar turkumi va ular joylashuvini aniq hisoblab bergan davlat arbobi Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek, islom dinining peshvolaridan bo'lgan Imom Buxoriy va At-Termiziyalar hadislarini ko'chirib saqlab qolgan Az-Zamaxshariy va shu kabi boshqa o'nlab allomalarga yurt sanalgan bu muqaddas zamin shunday ajdodlarimizga beshiklik qilgani va ayni shu yurtda siz-u bizning dunyoga kelib yashayotganimiz shunchalar beqiyos qalbimizni to'liqlantiradi. Demakki, biz bularni kelajak avlodimiz bo'lmish yoshlarga olimu ajdodlarimiz mumtoz meroslarini naqadar dunyo uchun katta ahamiyatli ulkan ishlar bajarganliklarini o'rgatsak va bizning Vatanimiz oldidagi vazifalarimizni to'g'ri voyaga yetmaganlarga o'z vaqtida tushuntirsak oldimizga qo'ygan ulkan maqsadimiz O'zbekiston vatanimizni yanada rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz va "BIZ BUYUK YURT farzandlarimiz" degan shiorni bajargan bo'lamiz.

O'tmishning ulug' namoyandalarning davomchisi sifatida ularga munosib farzand, izdosh bo'lishga biz ham birinchi yurtboshimiz aytdanlari kabi hech kimdan kam emasmiz, kam bo'lmaymiz ham deya faxr ila yashashga ajdodlarimiz ruhi madadkor bo'lgay degan so'zlari esa taqdir yo'limizni bamosoli yoritib turganday tuyuladi, bu chuqur ma'noli so'zlar esa bizni qo'llab-quvvatlaganday go'yo yuksalish sari olg'a qadam tashlashga undaydi.

Hozirda bizlarga yaratilgan imkoniyatlardan mukammal darajada samarali foydalanib, kelajakda Vatan uchun xizmat qiladigan xalqparvar insonlar bo'lishimizni taqozo etadi. Qarang qaysi yurtda ayollar erkaklar bilan hur O'zbekistonimiz o'lkasidagidek teng huquqli, qaysi yurtda keksalar bizni Vatanimizdagidek e'zozda va yana qarang qaysi davlat yurtboshisi O'zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimovdek, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevdek yoshlarga tashabbus ko'satib, otalarcha bosh bo'lib, mening farzandlarim deb keng imkoniyatlar yaratgan.

Bir o'ylab ko'ring-a hali davlat bosh pasporti bo'lmish konstitutsiya qabul qilinmagan bir paytda yoshlarga oid davlat siyosati dasturining amalga oshirilishi mustaqillikning ilk kunlaridanoq yurtimizning biz yoshlarga qaratgan yuksak e'tibori deb o'laymiz. Ayni damda ham sizni bizning mana bunday tinch va osuda damlarni tuhfa etayotgan yurtimiz farzandi sifatida ta'lim-tarbiya olib kelayotgan ekanmiz biz buyuk yurt farzandimiz deyishdan faxrlanamiz. Aziz yoshlar, hurmatli yurtdoshlar bir necha yuz yillar avval boshlangan o'tmish minorasining devorlariga shu devor mustahkamligi uchun keling biz ham mustahkam, ajdodlarga munosib, kelajak avlodlarga saboq bo'ladigan, shunday ko'p asrga tatiydigan g'isht qo'yib o'taylikki, natijada har bir yurtdoshimizdan o'ziga xos yorug', ibratli yo'l qolsin.

Yuqorida keltirilgan bu fikrlarimiz birinchi navbatda voyaga yetmagan yoshlarda Vatanga bo'lgan muhabbatni "BIZ BUYUK YURT farzandlarimiz" shiori ostida shakllantirishning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi o'rining naqadar kelajakning bunyodkorlari bo'lmish yosh avlodning bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo'lib o'z yurti va xalqiga sitqidildan mehnat qilish, ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga bir oz bo'lsada o'rgatishni nazarda tutgan edik. Zero, yurtimizdagi barcha islohot va o'zgarishlar avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun amalga oshirilayotgani, xalqimizning necha asrlilik orzu-intilishlari bugungi hayotimizda o'zining amaliy ifodasini topayotganining dalili bo'lib turibmiz. Binobarin, mustaqillik aynan fidoiy, o'z Vatani manfaatlariga g'oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlarning jamiyatni boshqarishini taqozo etadi.

ACRIDOTHERES TRISTISNING BIOLOGIYASIGA OID MA'LUMOTLAR

B. N. Doniyorov
BuxDU, O'zbekiston

Buxoro shahri sharoitida oddiy maynaning bioekologiyasiga oid ilmiy tadqiqot va kuzatishlarimizni 2007-2022 yillarda olib bordik. Shunga asosan bu qushni Buxoro shahridagi barcha muhitlarda yil davomida uchrashi, yuksak darajada moslashganligi uchun soni va ahamiyati jihatidan ekotizmda o'ziga xos o'rinni egallashi hamda yuqori zichlikka ega bo'lishi guvohi bo'ldik. Qolaversa, shahar hududida sonining ko'pligi, serharakatligi, tajovuskorligi uni boshqa turlardan ajratib turishi bilan kishi e'tiborini o'ziga tortadi.

E. Sh. Shernazarov ma'lumotiga ko'ra 1976 yilning qishida Toshkent aviatsiya zavodi sexida 4000 ta, 1980 yil chinni zavodi sexida 5000 ta atrofida maynalarning tunashi bizga manbalardan ma'lum. Shahsiy tadqiqotlarimizda mayna kuz va qish fasllarida asosan 5-40 tagacha individdan iborat kichik, ba'zan 200-400 tagacha individdan iborat o'rta va ahyon-ahyonda 2000-3000 tagacha individdan iborat katta guruhlar hosil qilib oziqlanish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, tunash, dam olish, raqobatlashish va himoyalaniish kabi hayotiy jarayonlarni amalga oshirishi aniqlandi. Besh mingtagacha individdan iborat eng katta kolloniyasini 2010 yilning 10 yanvarida oziqlanish jarayonida Buxoro Avtoshohbekat yaqinidagi ko'l atrofi (hozirgi Buxoro madaniy markazi majmuasi) da uchratildi.

Iqlimiy omillarning nomoyon bo'lishiga ko'ra ba'zan dekabr oyida ham juft holdagi va uya qurayotgan mayna oilalarini ko'rish mumkin. Biroq ko'payish bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar fevral oyining boshlarida maynalarning bir holatda juftlarga ajralganligini, ikkinchi bir holatda hali ham 7-15 tagacha individdan iborat guruh bo'lib, o'z arealida nomoyon qiladigan xulqiy reaksiyalarida ko'zga tashlanadi. Mart oyining uchinchi dekadasiiga kelib uya qurishga kirishganligini kuzatish mumkin.

Maynalar uyalarini zag'izg'onlarning eski inlariga, ta'mir talab binolardagi teshik-tarqamlarga, himoyalangan karnaklar ichiga, suv quvirlari atrofiga o'ralgan g'illoflar orasiga o'z turiga xos mahorat bilan joylashtiradi. Zag'izg'onlarning eski inlaridan foydalanishda maynaga ko'k kaptar, qumri, cho'l sog'i kabi o'zga turlar va o'z turdoshlari raqobatchi bo'ladi. Uya materialini tanlashda qush atrofidagi tez va oson topiladigan xom-ashyoga murojat etadi. Jumladan, tut, olma, o'rik, qaroli, olmurut kabi daraxtlarning barglari hamda shoxchalari, oq pilyonka, turli shirinliklarning qadoqlari, qora selofan, iplar, ko'p yillik o'simliklarning tana qismlari, audio kasetalarining lentalari, qo'y, sigir, otlarning jun-qillari, go'ng qarg'a, ko'k kaptar, tovuq kabi qushlarning kontur patlari bunga yorqin misol bo'ladi.

Maynaning ko'payish sikli ancha cho'ziq bo'lib, uning ikkita tuxumli uyasining (17.08.1967) va 10-12 kunlik jo'jali uyasining (02.09.1970) topilishi ham buni isbotlaydi (Baqoyev, 1994).

Mayna 4-6 ta tuxum qo'yadi, tuxumlarining po'chog'i och havorang-ko'kish tusda bo'ladi. Tuxumlar har kuni bittadan yoki kunora qo'yilganligini kuzatish mumkin. Uyalardagi tuxumlarning soni, katta-kichikligi va shakli turlicha bo'ladi. Tuxum bosish uyaga birinchi tuxum qo'yilishi bilan boshlanadi. Tuxum bosishda urg'ochi jins faolroq bo'ladi. Tuxumlarni urg'ochisi va erkagi 15 kun bosib isitadi. Tuxumidan chiqqan jo'jalarining quloq teshiklari yopiq, ko'zlari ojiz, tanasi pat va parsiz hamda nimjon va zaif bo'ladi. Rivojlanishning 4-kuni quloq teshiklari, 6-7 kunligida ko'zlari ochiladi va tanasida par-patlarning elimentlari shakllanib, terisining rangi qizildan qora tusga to'qlasha boshlaydi. Maynaning jo'jalari xuddi ko'k kaptar, qumri va musichaning polaponlariga o'xshab tez rivojlanadi va 24 kunda uyasidan uchib chiqadi.

Mayna asosan chigirtkalar bilan oziqlanadi. Bir juft mayna yiliga 150 000 taga yaqin chigirtkalarni qirishini (Simonov, 1977; Bogdanov, 1983), ot, sigir va qo'ylar tanasi va atrofidagi pashsha, so'na va boshqa parazitlarni terib yeyishini, kuz va qish fasllarida axlatxonalarda va shahar hududidagi yo'l chekkalarida turli chiqindilar bilan oziqlanishi hisobidan sanitarlik vazifasini bajarishini inobatga oladigan bo'lsak, mayna juda ham foydali qush hisoblanadi. Lekin, maynaning shahar sharoitida yuqori zichlikka egaligini, antisaniitariya bilan bog'liq muammolarning kelib chiqishida ishtirok etishini, tungi koloniyalarida kuchli shovqinga sababchi bo'lishini hisobga olgan